

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.T.08.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

ESANOVA NOZAKAT BURXANOVNA

**INTENSIV USULDA YETISHTIRILGAN PILLALARGA ISHLOV BERISH
TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH**

**05.06.02 – To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va xomashyoga
dastlabki ishlov berish**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATYASI AVTOREFERATI**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferatining
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on technical
sciences**

Esanova Nozakat Burxanovna

Intensiv usulda yetishtirilgan pillalarga ishlov berish texnologiyasini
takomillashtirish..... 3

Эсанова Нозакат Бурхановна

Совершенствование технологии обработки коконов, выращенных
интенсивным методом 23

Esanova Nozakat Burkhanovna

Improving the technology for processing cocoons grown by intensive
method..... 45

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 49

ESANOVA NOZAKAT BURXANOVNA

INTENSIV USULDA YETISHTIRILGAN PILLALARGA ISHLOV BERISH
TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

05.06.02 – To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va xomashyoga dastlabki ishlov berish

TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent-2026

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/T5407 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.ttysi.uz) hamda "Ziyonet" axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Gulamov Azamat Eshankulovich

texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Matismailov Sayfulla Lolashbayevich

texnika fanlari doktori, professor

Sharipov Jurabek Shomil o'g'li

texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot:

Ipakchilik ilmiy tadqiqot instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.2019.T.08.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil 19 yanvar soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil:100100, Toshkent sh., Shohjahon ko'chasi, 5. tel.: (+99871) 253-06-06, (+99871) 253-08-08, faks: (+99871) 253-36-17; e-mail: titlp_info@edu.uz, Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti ma'muriy binosi, 2-qavat, 222-xona).

Dissertatsiya bilan Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (263-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100100, Toshkent sh., Shohjahon-5, tel.: (+99871) 253-06-06, (+99871) 253-08-08.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil 5 yanvar kuni tarqatildi
(2026-yil 5 yanvardagi 263 -raqamli reystr bayonnomasi).


X.H. Kamilova
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor


A.Z. Mamatov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi, t.f.d., professor


Sh.Sh. Xakimov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi
Ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor



KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda ipakchilik sanoatining sifatli pilla yetishtirish, xom ipak ishlab chiqarish va tayyor ipak mahsulotlarni tayyorlash, pillani qayta ishlashda chiqindi miqdorini kamaytirishda energiya-resurstejamkor texnologiya va texnika vositalarini qo'llash yetakchi o'rinlardan birini egallamoqda. Dunyodagi asosiy ipak ishlab chiqaruvchi mamlakatlarga Xitoy, Hindiston, O'zbekiston, Braziliya, Yaponiya, Koreya Respublikasi, Tailand, Vyetnam, Janubiy Koreya, Eron va boshqalar kiradi¹. Dunyo bo'yicha ipak ishlab chiqarish keyingi 5 yilda 15,7 foizga oshgan va ayni paytda yillik yalpi ipak mahsuloti hajmi 192,694 tonnaga teng bo'lib, uning 80 foizi Xitoy, 16 foizi Hindiston, 2,5 foizi O'zbekiston qolgan qismi boshqa mamlakatlar hissasiga to'g'ri keladi. Bugungi kunda ipakchilik bilan shug'ullanuvchi barcha davlatlarda tut ipak qurtini parvarishlashda yuqori namlik sharoitlarni hisobga olgan holda yetishtirish hamda yuqori sifatli xalqaro standartlarga mos ipak xomashyosini ishlab chiqarishga alohida e'tibor qaratmoqda.

Jahonda tut ipak qurtining monovoltin zotlarini turli gigrotermik parvarishlash usullarida avtomat pilla chuvish jarayonlariga mos pilla xomashyosi yetishtirish va sanoat miqyosida xom ipakni chuvib olish, uni chuqur qayta ishlash hamda tayyor ipak mahsulotlari yetishtirish yo'nalishlarida yangi innovatsion agroteknologiyalarni ishlab chiqish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ushbu yo'nalishda, jumladan, intensiv usulda yetishtirilgan pillalarga dastlabki ishlov berish va chuvish texnologiyalarini takomillashtirish ustuvor yo'nalishlardan hisoblanmoqda. Bu borada ipak qurti duragay kombinatsiyalarini biologik potensialini ro'yobga chiqarish imkonini beruvchi, pilla hosili, xom ipak chiqishini oshirish hamda ipak qurti uchun eng zarur bo'lgan optimal harorat hamda nisbiy namlikni doimiy ta'minlovchi borasida yangi ilg'or texnologiyalarni yaratish va ularni ishlab chiqarishga tatbiq qilish dolzarb ilmiy-amaliy muammolardan hisoblanadi.

Respublikamizda pilla yetishtirish va uni qayta ishlash, turli mintaqalarimizga moslashgan sermahsul zot va sanoatbop duragaylar hamda to'yimlilik yuqori bo'lgan tut navlari yaratish, mahalliy va xorij ipak qurtlarini O'zbekistonning o'ziga xos quruq iqlim sharoitlarida to'g'ri parvarishlash, ularni doimiy harorat va nisbiy namlik bilan ta'minlash usullarini ishlab chiqish borasida muayyan yutuqlarga erishib kelinmoqda. Lekin, yaratilgan intensiv usulda yetishtirilgan ipak qurtining hayotchanligi va mahsuldorlik ko'rsatkichlaridan tashqari, ipakchilik tarmog'i uchun eng muhim ko'rsatkichlaridan biri bo'lgan pilla qobig'ining xususiyatlariga, dastlabki ishlov berish rejimlarini ratsional parametrlarini to'g'ri tanlash, ipak iplarining sifatiga ta'sirini o'rganish va ilmiy asoslash dolzarb muammolardan biridir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi, 2023-yil 1-iyundagi PF85-son "Pillachilik sohasida kasanachilikni qo'llab-quvvatlash hamda pilla yetishtirish uchun ozuqa bazasini yanada kengaytirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2024-yil 3-martdagi

¹ <https://inserco.org/en/statistics>

PF-72-son “Pilla yetishtirish va ipakchilik sohasida bozor mexanizmlarini joriy qilishni jadallashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2025 yil 16-yanvardagi PQ-6-son “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida qayta ishlash zanjirini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi va Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 13-sentyabrdagi 571-son “Ipakchilik sohasida naslli urug‘chilik stansiyalari faoliyatini tashkil qilish to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar ijrosini o‘z vaqtida ta‘minlashda ushbu dissertatsiya ishi tadqiqotlari muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II. “Energetika, energiya va resurs-tejamkorlik” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Bugungi kunda pillalarni yetishtirish, yetishtirilgan pilla sifatini yaxshilashga qaratilgan bir qator ilmiy tadqiqot natijalari ma‘lum darajada ishlab chiqarishga joriy etilib kelinmoqda. Xorijlik olimlar tomonidan pilla yetishtirish agrotexnikasi va dastlabki ishlash, pillani chuvib, sifatli xom ipak ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish, tayyor ipak mahsulotlarini yaratishda yuqori talab va xaridorgir bo‘lgan yangi assortimentlarni ishlab chiqish masalalari bo‘yicha bir qator olimlar: V.K. Rahmathulla, M.Hussain, S.A. Khan, M.Naeem, A.U. Mohsin, M.V. Izzatov, Li Yuem, Zhou Shuxian, Resma Rajan, Shinji Nagata, S.Gunze, Lan Cheng, Xungai Wang, B.Arindam, Hiromichi Nagasawa va boshqalar tadqiqotlar olib borganlar.

Respublikamizda ham pillalarga ishlov berish, ularni chuvishga tayyorlash, chuvish texnologiyalari, yangi assortimentdagi ipak mahsulotlarini tayyorlash, yigirilgan va boshqa xususiyatlari yaxshilangan iplar olish uchun ishlatiladigan xomashyo tuzilishini tadqiq qilish, eshilgan iplar olish, zamonaviy dastgohlarda ip tayyorlash jarayonini tashkil etish uchun nazariy va amaliy asosni yaratish bo‘yicha: G.K.Kukin, V.A.Usenko, E.B.Rubinov, M.M.Muhamedov, Sh.A.Qodirov, I.Z.Burnashevlar soha rivojiga o‘z hissalarini qo‘shganlar. Hozirda X.A.Alimova, B.U.Nasrillayev, A.E.Gulamov, N.M.Islambekova, J.A.Axmedov, K.R.Avazov, N.J.Qobulova, Sh.M.Esanova, U.N.Azamatov, A.P.Eshmirzayev, D.S.Sodiqov kabi bir qator olimlar tadqiqotlar olib borib bu soha ilmining rivojiga munosib hissa qo‘shib kelmoqdalar.

Olib borilgan adabiyotlar tahlillaridan ma‘lum bo‘ldiki, yuqori namlik muhitda, intensiv usulda yetishtirilgan pillalarni ishlov berish texnologiyalarini takomillashtirish hamda ulardan xom ipak olishda samarali foydalanishga qaratilgan ilmiy izlanishlarga yetarli darajada e‘tibor qaratilmagan ekanligini ko‘rsatdi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq №:21a/2025 “Intensiv usulda yetishtirilgan pillalarga ishlov berish texnologiyasini takomillashtirish” mavzusidagi xo‘jalik shartnomasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: intensiv usulda yetishtirilgan pillalarga ishlov berish texnologiyasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

respublikada yaratilgan yangi duragay pillalarga ishlov berish holatining tahlil qilish;

tut ipak qurti yetishtirish usulini pilla qobig'ining xususiyatlariga ta'sirini tadqiq etish;

intensiv usulda yetishtirilgan pillalarni dastlabki ishlash rejimlarini takomillashtirib, tavsiya ishlab chiqish;

intensiv usulda yetishtirilgan pillalardan yuqori sifatli xom ipak olish uchun chuvishga tayyorlash va chuvish jarayonlarini takomillashtirish;

olingan xom ipakning texnologik va fizik-mexanik ko'rsatkichlarining tahlili, tadqiqotning iqtisodiy samaradorligini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida intensiv usulda yetishtirilgan tut ipak qurtini pillalariga ishlov berish texnologiyasi olingan.

Tadqiqotning predmeti intensiv usulda yetishtirilgan yangi Zarafshon-2 va Zarafshon-3 sanoat duragaylari pillalariga ishlov berish hamda xom ipak sifatini aniqlashdagi uslub va vositalar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot ishlarini bajarishda, pillalarning texnologik xususiyatlarini aniqlash, olingan barcha ilmiy natijalarni texnologik, matematik statistika, ishlab chiqarish va tahliliy o'rganish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

yuqori namlik intensiv usulda yetishtirish Zarafshon-2 va Zarafshon-3 yangi mahalliy duragaylarida pilla qobig'ining qalinligi, quvvati ortishiga, g'ovakdorlikning esa kamayishiga ta'siri aniqlangan;

intensiv usulda yetishtirilgan pillalar g'umbagini jonsizlantirishning ratsional parametrlari tajribani matematik rejalashtirish usulidan foydalanib olingan regression tenglamalarni tahlil qilish asosida ishlab chiqilgan;

sferik g'ovakdor jismlarda pilla quritish jarayonining issiqlik almashish qonuniyatlari va kinetik modellari asosida quritish konstantasining qiymati hamda pilla namligining vaqt davomiyligida o'zgarishi aniqlangan;

tavsiya etilgan pillani quritish parametrlar asosida ishlov berilgan pillalardan yuqori sifatli xom ipak olish uchun pillani pishirish davomiyligi, chuvish tezligini ratsional rejimlar ishlab chiqilib, texnologik jarayonlar takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

intensiv va mavjud usullarda yetishtirilgan Zarafshon-2 va Zarafshon-3 duragay pillalarining qobiq xususiyatlari tadqiq etilgan hamda ulardan chuvib olingan xom ipakning fizik-mexanik xususiyatlari aniqlangan;

pillani quritish nazariyasi asosida, intensiv usul uchun quritish parametrlari aniqlangan;

intensiv usulda yetishtirilgan tut ipak qurtining Zarafshon-2 va Zarafshon-3 duragay pillalari uchun dastlabki ishlov berishning asoslangan muqobil texnologik rejimlari takomillashtirilib ishlab chiqarish korxonalariga joriy qilingan;

intensiv usulda yetishtirilgan Zarafshon-2 va Zarafshon-3 duragay pillalardan 3 A sinfiga mos sifatli xom ipak olishda, chuvishning texnologik rejimlari nazariy hamda amaliy asoslanib, ishlab chiqarish korxonalariga joriy qilingan;

intensiv usulda yetishtirilgan mahalliy duragaylardan texnologik xususiyatlari yuqori darajada bo'lgan pilla xomashyosi va sifatli ipak tolasi olishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi, eng avvalo, tadqiqotlar zamonaviy laboratoriya va ishlab chiqarish tajribalari asosida o'tkazilganligi hamda tajriba materiallarining statistikasi, nazariy va amaliy tadqiqotlarning natijalarini solishtirish, baholash mezonlariga ko'ra ularning mos kelishi, sinov natijalarini 95% aniqlikka mos kelishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati intensiv usulda yetishtirilgan mahalliy tut ipak qurti duragay pillalariga dastlabki ishlash texnologik rejimlari va xom ipakni chuvish texnologik rejimlarini takomillashtirish orqali 3A sinfiga mos yuqori sifatli xom ipak ishlab chiqarish texnologiyasining yaratilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotlarning amaliy ahamiyati intensiv usulda yetishtirilgan pillalardan 3A sinfiga mos xom ipak chuvib olish uchun texnologik rejimlar taklif etilgan va ishlab chiqarishga joriy etilib, energiya sarfini kamaytirgan holda korxona samaradorligini oshirilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tut ipak qurtining rayonlashtirilgan, istiqbolli sanoat duragaylari texnologik xususiyatlariga intensiv usulda yetishtirishning ta'siri hamda ularga dastlabki ishlov berish va chuvish texnologiyasini takomillashtirish bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

tavsiya etilgan takomillashtirilgan texnologiya "O'zbekipaksanoat" uyushmasi tasarrufidagi korxonalarda jumladan, Qashqadaryo viloyati Shahrisabz tumanida "Shahrisabz agropilla" MCHJ hamda "Shahrisabz silk production" MCHJ korxonalarida joriy qilingan ("O'zbekipaksanoat" uyushmasining 2025-yil 23-sentyabrdagi 4-2/1692-sonli ma'lumotnomasi). Natijada intensiv usulda yetishtirilgan mahalliy pillalar uchun dastlabki ishlov berish va chuvish texnologiyasini takomillashtirish orqali xalqaro standart talablarining "3A" sinfiga mos yuqori sifatli xom ipak olish imkoniyati yaratilgan bo'lib, pillalarni chuvishga tayyorlash jarayonidagi pishirish vaqti 15% ga, 1 kg xom ipak ishlab chiqarishga ketadigan pillalarni solishtirma sarfi 4 % ga kamayishiga hamda chuvish dastgohini ish unumdorligi 16 % oshishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari, jumladan 9 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 20 ta ilmiy ishlar nashr etilgan. Shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 4 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 110 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqot maqsad va vazifalari belgilangan, uning obyekti va predmetini shakllantirilgan, tadqiqotning respublika fan va texnikasini rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligini ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalarini bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligini asoslaydi, nazariy ochib beradi va olingan natijalarning amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarini amalda tatbiq etish, nashr etilgan maqolalar va dissertatsiya tuzilishi haqida ma’lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Adabiyotlar sharhi”** deb nomlangan birinchi bobida adabiyot manbalarining tahlili yoritilgan bo‘lib, unda dunyo va mamlakatimizda ipak sanoatining hozirgi holati, rivojlanish istiqbollari, pilla yetishtirish texnologiyasini takomillashtirish, yangi duragaylar yaratish, yetishtirish va qayta ishlash texnologiyalarini takomillashtirish yo‘nalishlarida olib borilgan ilmiy izlanishlar o‘rganilgan. Adabiyotlar tahlillari asosida tadqiqotning maqsad va vazifalari belgilab olingan. Olib borilgan tahlillar natijasida intensiv usulda yetishtirilgan pillalarning texnologik xususiyatlarini inobatga olib sifatli xom ipak ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish dolzarb masala ekanligi aniqlangan.

Dissertatsiyaning **“Intensiv usulda yetishtirilgan mahalliy duragay pillalarni dastlabki ishlov berish texnologiyasi”** deb nomlangan ikkinchi bobida mahalliy duragay pillalarni yetishtirishning intensiv usuli, tut ipak qurti pillasini quritish jarayonining nazariy tahlili, pillalarni jonsizlantirishni matematik rejalashtirish regression tenglamasi qurilib, shu asosida dastlabki ishlash rejimlari ishlab chiqilgan.

Zarafshon-2 va Zarafshon-3 mahalliy zot duragaylari intensiv usulda hamda mavjud usullarda parvarishlandi. Tajribalardagi intensiv usulni (tajriba) va mavjud usulni (nazorat) deb olingan. Tadqiqot ishida mahalliy ipak qurtlari yuqori namlik va past haroratda plyonka ostida g‘anadan 100 mmli masofada hosil qilingan mikroklimatlarda yetishtirilgan bo‘lib, boshqa plyonka ostida boqilgan usullardan keskin farq qiladi. Plyonka ostida namlik yuqori 75-85 % va harorat esa 23-25°C bo‘ladi. Natijada barglar namligini saqlab qoladi, so‘limaydi va qurtlar bargni maksimal darajada iste‘mol qiladi. Plyonka so‘kichakka mahkam yopishtirilgan bo‘lib, xuddi issiqxonlardagidek faqat qurtlar boqilayotgan zona uchun yuqori namlik hosil qilinadi. Plyonka ostida ipak qurtini boqilganda, odatdagi to‘shama qog‘oz ishlatilmasdan, bo‘z mato ishlatilgan. Bo‘z mato havo o‘tkazishi yaxshi bo‘lib, g‘ana mog‘orlanmasligiga sabab bo‘lib, qurtlarni kasallikka chalinishini oldini oladi. Tadqiqotlarni olib borish jarayonida qurt boqishda qo‘llanilgan ikkala usulni bir-biriga solishtirib, ularning o‘ziga xos afzallik va kamchiliklari hamda ularni qurtlarning rivojlanishiga ta’siri o‘rganildi. Pilla yetishtirishning intensiv usulida ipak qurtlariga berilgan tut barglarining uzoq vaqt namligini yo‘qotmay turishiga sabab bo‘ldi. Bu holat qurtlarga doimiy ravishda namligini yo‘qotmagan barg bilan oziqlanish imkonini yaratdi va ozuqa sarfi tejaldi. 1 quti qurtdan olingan hosil intensiv usulda yetishtirilganda 62,3 kg, mavjud usulda esa 56,1 bo‘ldi. Hosildorlik orasidagi farq 6,2 kgni tashkil etdi va hosildorlikni 10 % ga oshirdi (1-jadval).

1-jadval**Bir quti ipak qurtini boqish uchun ozuqa sarfi, kg**

Boqish usuli	1-yosh	2-yosh	3-yosh	4-yosh	5-yosh	Jami	Olingan hosil, kg
Mavjud	6,3	18,5	59	142	781	1006,8	56,1
Intensiv	2,9	8,8	35,4	129	695	871,1	62,1
farqi	-3,4	-9,7	-23,6	-16	-86	-135,7	+6,2

Qurt boqish usulini yakka holda chuvinilgan tirik pillalarning texnologik ko'rsatkichlari 2-jadvalda keltirilgan.


2-jadval**Turli usullarda yetishtirilib yakka holda chuvinilgan tirik pillalarning texnologik ko'rsatkichlari**

№	Ko'rsatkichlar nomi	Ko'rsatkichlar			
		Zarafshon-2		Zarafshon-3	
		mavjud usul (nazorat)	intensiv usul (tajriba)	mavjud usul (nazorat)	intensiv usul (tajriba)
1	Pillalarning vazni, g	1,75	1,87	1,77	1,89
2	Pilladan ipakning chiqishi, %	15,2	17,12	15,34	17,19
3	Pilla losi chiqishi, %	3,32	2,8	3,35	2,56
4	Qaznoq va po'st chiqishi, %	0,94	0,87	1,08	0,85
5	Qobiqning ipakdorligi, %	19,46	20,79	19,77	20,84
6	Pilla ipining chiziqli zichligi, Teks	0,33	0,33	0,34	0,34
7	Ipning umumiy uzunligi, m	1186	1350	1201	1400
8	Uzluksiz chuvaluvchan uzunligi, m	853	1159	1085	1237

Pillalarga dastlabki ishlov berish murakkab jarayon bo'lib, intensiv ravishda namlik va issiqlik almashinuvi quritish agenti, qobiq va g'umbak oralig'ida sodir bo'ladi. Shu bois, g'umbakni jonsizlantirish va uning tarkibidagi namlikni yo'qotish jarayonida pilla qobig'ining bevosita ishtiroki, ularga dastlabki ishlov berish jarayonini issiqlik texnikasi qonuniyatlari asosida tadqiq etish, rejimlarni to'g'ri tanlash orqali uning texnologik xususiyatlarini tabiiyligicha saqlashni va jarayon uchun sarf bo'ladigan energiyadan oqilona foydalanishni talab etadi.

Pillani issiq havoda quritish jarayonidagi quritish agenti (issiqlik havo) bilan quritish obyekti (g'umbak) o'rtasidagi issiqlik almashuvi pilla qobig'i orqali uning ichida ro'y beradi. Quritish davomida esa qobiq tarkibidagi namlik saqlanib qoladi. Issiqlik dastlab quritish agentidan qobiqning sirtiga, so'ngra qobiqning ichki sirtiga uzatiladi. Natijada, issiqlik qobiqning ichki sirtidan uning ichidagi g'umbagiga konvektiv-konduktiv va nurli issiqlik almashuvi yordamida uzatiladi.

Pillani shaklini oval (1-rasm) sifatida tasavvur qilsak, uning sirtini quyidagi parametrik tenglama yordamida ifodalash mumkin:



1-rasm. Oval shaklli pilla ko‘rinishi

$$\begin{cases} x(u, v) = a \cdot \sin u \cdot \cos v, \\ y(u, v) = b \cdot \sin u \cdot \sin v, \\ z(u, v) = c \cdot \cos u, \end{cases} \quad (1)$$

bu yerda:

$u \in [0, \pi], v \in [0, 2\pi]$,

a, b, c —ellipsoidning yarim o‘qlari. Bu model pillaning oddiy, simmetrik holatini ifodalaydi.

G‘umbak quruq massasi m_p ga nisbatan namlik miqdorini $M_p(t)$ (foiz ko‘rinishda) deb belgilaymiz.

Boshlang‘ich sharoitda:

$$M_p(0) \approx 160\% \div 233\%.$$

Quritish yakunida, g‘umbak namligi M_{eq} ga yaqinlashadi:

$$M_{muv} \approx 10\% \div 12\%.$$

G‘umbakni namligini kamayishini quyidagi birinchi tartibli quritish differensial tenglamasi bilan ifodalaymiz:

$$\frac{dM_p}{dt} = -k \cdot (M_p - M_{muv}), \quad (2)$$

bu yerda:

k – quritish konstantasi (issiqlik, havoning tezligi, diffuziya koeffitsiyenti kabi parametrlar ta’sirida aniqlanadi),

$M_p(t)$ – vaqt t da g‘umbak namligi,

M_{muv} – muvozanatli (ekvivalent) namlik darajasi.

Ushbu tenglamaning yechimi quydagi shaklda bo‘ladi:

$$M_p(t) = M_{muv} + (M_p(0) - M_{muv}) \cdot e^{-k \cdot t} \quad (3)$$

Tahlilda g‘umbakni ellipsoid shaklida qabul qilinganligi sababli diffuziya modellashtirilishida Fikning ikkinchi qonuni (diffuziya tenglamasi) qo‘llaniladi. Bu qonun ellipsoid geometrik shakldagi moddalarning tarqalishini tavsiflash uchun muvofiq:

$$\frac{\partial S}{\partial t} = D \cdot \nabla^2 \cdot S \quad (4)$$

bu yerda,

S —namlik konsentratsiyasi,

D —samarali namlik diffuziya koeffitsiyenti,

∇ —ellipsoid geometrik sharoitga moslashtirilgan Laplas operatori.

G‘umbakning ellipsoid holatida uzoq vaqt davomida asosiy (eng kichik) rejimning ustunligi bilan yechim aniqlanadi va unga quyidagicha yondashiladi:

$$\frac{M(t)}{M(0)} \approx A_1 \cdot \exp(-D \cdot \lambda_1 \cdot t) \quad (5)$$

bu yerda:

A_1 — boshlang'ich shartlarga bog'liq amplituda koeffitsiyenti;

D — moddaning samarali diffuziya koeffitsiyenti;

λ_1 — ellipsoid geometrik shakli uchun eng pastgi (birinchi) qiymat.

Agar ellipsoidning yarim shari a , b va c bo'lsa, taxminiy eng past qiymat quyidagicha ifodalanadi:

$$\lambda_1 \approx \pi^2 \cdot \left(\frac{1}{a^2} + \frac{1}{b^2} + \frac{1}{c^2} \right) \quad (6)$$

Bu ifodalash ellipsoidning aniq geometrik parametrlariga bog'liq ravishda modifikatsiyalanishi mumkin, ammo asosiy qonuniyat shuki, uzoq vaqt davrida yechim eksponensial tarzda $\exp(-D \cdot \lambda_1 \cdot t)$ ya'ni dastlab tez keyin sekinroq namlik chiqishi pasayishini bildiradi pasayadi.

Agar pilla qobig'i namlikning chiqishida qo'shimcha qarshilik bo'lsa, g'umbak va qobiq o'rtasidagi namlik oqimi ikki bosqichli qarshiliklar orqali aniqlanadi.

Namlik oqimini J deb belgilab, quyidagicha yozamiz:

$$J = \frac{M_p - M_{muv}}{R_{ichki} + R_{tash}} \quad (7)$$

bu yerda:

R_{ichki} — g'umbak ichidagi diffuziya qarshiligi,

R_{tash} — qobiq yuzasidagi (havo bilan aloqa natijasida yuzaga kelgan tashqi qarshilik).

G'umbakda chiqayotgan namlik oqimidan kelib chiqadigan massa balans tenglamasi quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$\frac{dW_p}{dt} = -A \cdot J \quad (8)$$

bu yerda:

$W_p = m_p \cdot M_p$ — g'umbak ichidagi umumiy namlik massasi,

A — g'umbak yuzasi (yoki namlik chiqishi uchun samarali zona).

Quyidagi tenglamalar orqali quritish jarayonining asosiy xususiyatlarini ifodalash mumkin:

1. Birinchi tartibli quritish kinetikasi:

$$\frac{dM_p}{dt} = -k \cdot (M_p - M_{muv}), \quad M_p(0) = M_{p0} \quad (9)$$

yechimi:

$$M_p(t) = M_{muv} + (M_{p0} - M_{muv}) e^{-k \cdot t} \quad (10)$$

2. Quritish vaqtini aniqlash: Agar ma'lum vaqt ichida namlik $M_p(t)$ ga tushsa, xarakteristik quritish vaqti:

$$t_{qur} \approx \frac{1}{k} \cdot \ln \left(\frac{M_{p0} - M_{muv}}{M_p(t) - M_{muv}} \right) \quad (11)$$

3. Geometrik ta'sir (sferik model):

$$\lambda_1 \approx \pi^2 \cdot \left(\frac{1}{a^2} + \frac{1}{b^2} + \frac{1}{c^2} \right)$$

Ikki qarshilikli model:

$$J = \frac{M_p - M_{muv}}{R_{kir} + R_{chiq}} \quad \text{va} \quad \frac{dW_p}{dt} = -A \cdot J$$

Taklif etilgan ushbu model g‘umbak namligini vaqt bo‘yicha prognoz qilishga imkon beradi. Qo‘shimcha ravishda, qobiqni tashkil etuvchi pilla ipining tuzilishi va ularning chiziqli zichligi ($0,18 \div 0,33$ teks) quritish jarayonida namlik chiqishi va havo bilan ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu bois, tajribalar yordamida model parametrlarini (masalan, k , D , R_{int} , R_{ext}) aniqlab olish zarur.

Quritish jarayonining birinchi tartibli (eksponensial) modeli quyidagi formada bo‘ladi:

$$\frac{dW}{d\tau} = -k \cdot (W - W_{muv}) \quad (12)$$

integrallash:

$$W(\tau) = W_{muv} + (W_0 - W_{muv}) \cdot e^{-k \cdot \tau} \quad (13)$$

mana bu yerda

$W(\tau)$ — ma’lum bir vaqtdagi namlik (%);

$W_{bosh} \approx 183,3\%$ — boshlang‘ich namlik;

$W_{muv} \approx 100\%$ — quritilgandan so‘nggi o‘rtacha namlik;

($95 \div 105\%$ oralig‘idan olindi),


k — quritish kinetikasi konstantasi $k \approx 0,01851$;

τ — vaqt (min).

Regressiya (muvozanatni berish uchun umumlashtiruvch usul yoki logarifik almashtirish) asosida $k \approx 0,01851$ topildi.

Natijada olingan nazariy (model) va amaliy (tajriba) qismlarning grafigi yuqorida keltirildi. Modeldagi kutilgan natija $W(\tau) = 100 + 83,3 e^{-0,01851 \cdot \tau}$ bo‘lib, u tajriba nuqtalarga yaqin keladi.

Vaqt o‘tishi bilan namlik tezda eksponensial kamayadi, quritishning birinchi bosqichida pasayish tezligi yuqori bo‘lib, keyinchalik namlik sekin-asta muvozanatlashgan namlikka yaqinlashadi (2-rasm).



2-rasm. Pilla g‘umbagini jonsizlantirib quritish grafigi

Nazariy va amaliy tahlillar asosida quritish konstantasi k aniqlangan. Quritish konstantasi k pilla g‘umbagining namligini, quritish vaqtini va quritish tezligini hisoblash va oldindan bashorat qilish uchun kerak bo‘ladi.

Olib borilgan nazariy va amaliy tadqiqotlar natijasida intensiv usulda yetishtirilgan pillalarni dastlabki ishlashning ratsional texnologik rejimlarini tanlashni taqozo etdi. Buninig uchun matematik modellashtirish amalga oshirilib, regression tenglamalar keltirilib chiqarildi. Kiruvchi omillar sifatida quritish harorati (T , °C), vaqt (t , daqiqa) va qatlam qalinligi (S , mm) ning g‘umbakning jonsizlanishiga ta’sirini ifodalovchi regressiya modeli ishlab chiqildi. Chiquvchi omil etib Y -g‘umbag‘i jonsizlantirilgan pillalar ulushi, % da olingan (3-jadval).

3-jadval

Tajribaning rejalashtirish sharti

№	Kiruvchi omilning nomi, belgisi	Omilning haqiqiy qiymati			O‘zgarish oralig‘i
		-1	0	1	
1.	X_1 -harorat, T , °C	90	100	110	10
2.	X_2 -vaqti, t , daqiqa	60	90	120	30
3.	X_3 -qatlam qalinligi, S , mm	130	150	180	30

Chiquvchi parametrlarning tajribaviy natijalari va dispersiyalari 4-jadvalda keltirilgan.

4-jadval

Rejalashtirish matrisasi, tajriba va hisobiy qiymat natijalari

№	Faktorlar			Y_{uv}			$\bar{Y}_u$	S_u^2	Y_{hu}	$Y_u - Y_{hu}$	$(Y_u - Y_{hu})^2$
	X_1	X_2	X_3	Y_{u1}	Y_{u2}	Y_{u3}					
1	-	-	-	97	95	96	96,00	1	95,5	0,5	0,25
2	+	-	-	97	98	96	97,00	1	97,5	-0,5	0,25
3	-	+	-	96	97	96	96,33	0,33	96,83	0,5	0,25
4	+	+	-	99	100	99	99,33	0,33	98,83	-0,5	0,25
5	-	-	+	94	95	94	94,33	0,33	94,5	-0,17	0,03
6	+	-	+	94	95	96	95,00	1	94,83	0,17	0,03
7	-	+	+	95	96	97	96,00	1	95,83	0,17	0,03
8	+	+	+	96	95	97	96,00	1	96,17	-0,17	0,03

Koxren kriteriya yordamida dispersiyalarning bir jinsliliği tekshirilib, regressiya koeffitsiyentlari hisoblendi. Olingan koeffitsiyentlarni ahamiyatliligi Styudent mezonidan foydalangan holda tekshirildi va quyidagi yakuniy regressiya tenglamasi olindi.

$$Y_R = 96,25 + 0,58 \cdot X_1 + 0,67 \cdot X_2 - 0,92 \cdot X_3 - 0,42 \cdot X_1 \cdot X_3 \quad (14)$$


Olingan regressiya tenglamasini adekvatligini Fisher kriteriyasi orqali tekshirildi.

$$F_h = \frac{s_{nad}^2(y)}{s^2(y)} = \frac{1,11}{0,25} = 4,44 \quad (15)$$


Fisher kriteriyasining jadval qiymati

$$F_j[P_D = 0,95; f\{S_y^2\} = N(m - 1), f\{S_{nad}^2\} = N - N_K] = 5,85$$


Demak, $F_h < F_j$ bo'lganligi uchun model adekvatdir, ya'ni u pillalarni jonsizlantirish jarayonidagi miqdorini ifodalaydi. Pillalar g'umbagini jonsizlantirishni matematik rejalashtirish regression tenglamasini qurish natijasida 3 ta X_1 , X_2 va X_3 lar orasidagi o'zaro bog'liqlik izochiziqlari olindi (3-; 4-; 5-rasmlar) va bir-biri bilan taqqoslanib optimal parametrlari tanlandi.



3-rasm. X_1 va X_2 orasidagi bog'liqlik izochiziq



4-rasm. X_2 va X_3 orasidagi bog'liqlik izochiziq



5-rasm. X_1 va X_3 orasidagi bog'liqlik izochiziq

3-rasmdagi izochiziqda pillalarni jonsizlantirish uchun g'umbakka berilayotgan haroratning $0,2 < X_1 < 1$ ($102^{\circ}\text{C} \div 110^{\circ}\text{C}$) oraliqda o'zgarishi va g'umbakni quritishga ketgan vaqtga $0,6 < X_2 < 1$ ($108 \div 120$) o'zgarishi hisobiga g'umbakni jonsizlantirish izochiziqlarida 97,3 % ga oshganligi keltirilgan. Bunda qatlam qalinligi $X_3 = -1$ (130 mm) qiymatida erishgan.

4-rasmdagi izochiziqni tahlilida pillalarni jonsizlantirish uchun g'umbakni quritishga ketgan vaqti $0,6 < X_2 < 1$ ($108 \div 120$ min) oraliqda o'zgarishi va g'umbakni quritishda qatlam qalinligi $-1 < X_3 < 1$ ($130 \div 180$ mm) o'zgarishi hisobiga g'umbakni jonsizlantirish izochiziqlarida 95,4% ga oshganligi keltirilgan. Bunda harorat $X_1 = 1$ ya'ni harorat 110°C bo'lgan qiymatida erishgan.

5-rasmdagi izochiziqda pillalarni jonsizlantirish uchun g'umbakka berilayotgan haroratning $0,6 < X_1 < 1$ ($104 \div 110^{\circ}\text{C}$) oraliqda o'zgarishi va g'umbakni quritishda qatlam qalinligi $-1 < X_3 < -0,4$ ($130 \div 142$ mm) o'zgarishi hisobiga g'umbakni jonsizlantirish izochiziqlarida 100 % ga quritishga erishilganligi keltirilgan. Bunda quritishga sarflangan vaqt $X_2 = 1$ (120 min) qiymatida erishgan.

Yuqorida keltirilgan izochiziqlarni tahlilidan xulosa qilindiki, 5-rasmda keltirilgan X_1 va X_3 orasidagi bog‘liqlik izochizig‘ida qatlam qalinligi o‘rtacha $130 \div 142$ mm oralig‘ida bo‘lganda issiq havo yaxshi o‘tadi, harorat $104 \div 110^\circ\text{C}$, quritish vaqti 120 daqiqa bo‘lganda eng yuqori jonsizlantirish samaradorligi 100 % ga erishilgan.

Turli usullarda yetishtirilgan Zarafshon-2 va Zarafshon-3 mahalliy duragay pillalarini 90°C ; 100°C ; 110°C haroratlarda 60; 90; 120 min vaqt oraliqlarida issiq havoda jonsizlantirib o‘rganilganda quritish harorati 110°C , vaqt davomiyligi 120 daqiqa eng maqbul rejim bo‘lib, g‘umbakni to‘liq jonsizlantirdi, kapalak chiqishining oldini oldi va quritish koeffitsientini $2,34 \div 2,42$ ga barqarorlashtirishi aniqlandi (5-jadval).

Dissertatsiya ishining “**Intensiv usulda yetishtirilgan pillalardan sifatli xom ipak olish texnologiyasi**” deb nomlangan uchinchi bobida pilla yetishtirish usullarining pilla qobig‘i sifatiga, texnologik xususiyatlariga ta’sirini tadqiqi, pillalarni yakka chuvish natijalari, intensiv usulda yetishtirilgan pillalarni ratsional chuvish parametrlarini o‘rnatish, chuvishga tayyorlash jarayonlarining tadqiqi ishlab chiqarilgan xom ipakning sifat ko‘rsatkichlarini aniqlash, iqtisodiy samaradorlikni hisoblash ishlari bajarilgan. Sifatli ipak ishlab chiqarish uchun avvalo unga ishlatiladigan xomashyoni to‘g‘ri tanlash lozim. Bunda pillaning texnologik va fizik-mexanik xususiyati muhim ahamiyat kasb etadi.

Pilla qobiining quvvati, qalinligi va umumiy va uzluksiz chuvaluvchan uzunligi, ipakdorligi, pilla ipining chiziqli zichligi bilan uzviy bog‘liqdir. Ipak qurtini intensiv usulda parvarishlaganda Zarafshon-2 duragayi pillasi qobig‘ining qalinligi 5,18%, quvvati 5,3 %, g‘ovakdorligi 0,14 % va Zarafshon-2 duragayi mavjud usulda yetishtirilgan pillalarida qobiq qalinligi 0,86 %, quvvati 6,03 %, g‘ovakdorligi 1,82 % bo‘lganligi isbotlandi. Zarafshon-3 duragayi intensiv usulda yetishtirilgan pillasi qobig‘ining qalinligi 2,77 %, quvvati 16,6 %, g‘ovakdorligi 1,17 % va Zarafshon-3 duragayi mavjud usulda yetishtirilgan pillalarida qobiq qalinligi 4,61 %, quvvati 5,58 %, g‘ovakdorligi 3,10 % bo‘lganligi va shu ko‘rsatkichlar bo‘yicha pilla qobig‘i qismlaridagi notekisligi kamayganligi isbotlandi (6-jadval).

6-jadval

Turli usullarda yetishtirilgan pillalar qobig‘ining ko‘rsatkichlari

Ipak qurti duragayi		Pilla qobig‘ining ko‘rsatkichlari			
		O‘rtacha qalinlik, mm	Qobiqni o‘rtacha quvvati, mg/mm^2	O‘rtacha zichlik, mg/mm^2	Qobiqning o‘rtacha g‘ovakdorligi, %
Zarafshon-2	Mavjud usul	0,57	0,23	0,38	71,1
	Intensiv usul	0,67	0,26	0,40	70,3
Zarafshon-3	Mavjud usul	0,65	0,20	0,34	76,7
	Intensiv usul	0,68	0,23	0,35	74,1

Turli usullarda yetishtirilgan pillalarni turli xil rejimlarda dastlabki ishlov berilgandagi ko'rsatkichlari

Zarafshon-2												Zarafshon-2											
Mavjud usul							Intensiv usul					Mavjud usul						Intensiv usul					
Pilla vazni, g	Quritish davomiyligi, daqiqa	Quritishda vazn oʻzgarishi, gr	6 kunlik vazni	12 kunlik vazni	16 kunlik vazni	Kapalaklar soni, dona	Quritishda vazn oʻzgarishi, gr	6 kunlik vazni	12 kunlik vazni	16 kunlik vazni	Kapalaklar soni, dona	Quritishda vazn oʻzgarishi, gr	6 kunlik vazni	12 kunlik vazni	16 kunlik vazni	Kapalaklar soni, dona	Quritishda vazn oʻzgarishi, gr	6 kunlik vazni	12 kunlik vazni	16 kunlik vazni	Kapalaklar soni, dona		
1-variant 110 °C haroratda quritilgan																							
150	60	136,6	109,8	83	62,8	5	139,2	117,7	92,5	67,4	6	144,7	120,2	92,5	65	6	144,5	120,1	95,5	68,3	7		
	90	122	94,3	75	61,5	2	135,3	113	89	71,5	3	130,4	105,9	81,5	62,8	3	127,6	109,6	87	63,6	4		
	120	115,8	90,3	73,5	60,1	-	124,4	102,1	80,5	63,3	-	123,8	95	78	62	-	118,6	100,5	78	62	-		
2-variant 100 °C haroratda quritilgan																							
150	60	139	115	93,5	66,3	7	142,1	119,9	96,5	67	8	146	120,7	93,5	66,2	8	144,9	125	101	67,5	9		
	90	123,9	98,2	77,5	63,7	3	138	113,7	91	72,1	4	133,8	108,2	83,5	64,4	4	134,9	110,2	88,5	64,2	5		
	120	118,8	92	74	61	-	126,9	103,9	83	63,3	-	122,2	105,2	79	62,3	-	123,6	100,6	79,5	62,1	-		
3-variant 90 °C haroratda quritilgan																							
150	60	145,1	120,3	96,5	67,4	8	143,1	120,1	97,5	68,7	9	146,9	124,7	98	72,8	9	147,4	128,1	104	68	10		
	90	131,6	101,8	78,5	63,8	4	139,4	119,7	96,5	66,9	5	136	109,4	85	65,1	5	142	118,2	93,5	67,4	6		
	120	123,8	98,5	76	62,2	-	132,2	109,0	86,5	65,6	-	126,7	111,9	81	63,6	-	124,2	103,4	80	62,8	-		

Har ikkala duragay pillalarini tahlil qilganimizda fizik va mexanik xususiyatlari Zarafshon-3 intensiv usulda yetishtirilgan pillalarda yuqori ko'rsatkichga ekanligi aniqlandi.

Mavjud va intensiv usulda yetishtirilgan mahalliy "Zarafshon-3" va "Zarafshon-2" zot pillalarini texnologik xususiyatlari o'rganilganda, asosan o'rta va yirik kalibrlarni tashkil qildi. Barcha sanoat duragay pillalari boqish usullaridan qat'iy nazar oval shaklga ega. Bunday pillalarni chuvish qulay va sifatli xom ipak olish imkoni yuqoriligini ko'rsatdi (7-jadval).

7-jadval

Turli usullarda yetishtirilgan pillalarning geometrik o'lchamlari

Pilla duragaylari		Pilla uzunligi, D mm	Pilla qismlari diametrlari, mm			$d_{ort} = \frac{d_{bosh} + d_{tag}}{2}$	Ingichkalanish koeffitsienti, C_i	Belchanlik koeffitsienti, C_b	Kalibr	Pillani shakli
			d_{bosh}	d_{tag}	d_{bel}					
Zarafshon-2	Tajriba	29,8	16,8	17,5	17,6	17,2	1,73	0,97	o'rta	oval
	Nazorat	31,7	17,8	18,7	19,1	18,3	1,74	0,95	o'rta	
Zarafshon-3	Tajriba	31,5	17,6	18,5	19,5	18,0	1,76	0,92	o'rta	
	Nazorat	33,9	18,8	20	20,9	19,4	1,74	0,93	yirik	

Mavjud va intensiv usulda yetishtirilgan mahalliy Zarafshon-2 va Zarafshon-3 duragay quruq pillalarini yakka pilla chuvish dastgohida chuvib olinib, pilla ipining sifat ko'rsatkichlari aniqlandi hamda chiqqan natijalari tahlil qilindi (8-jadval).

8-jadval

Turli usullarda yetishtirilib yakka holda chuvilgan quruq pillalarning texnologik ko'rsatkichlari

№	Ko'rsatkichlar nomi	Zarafshon-2		Zarafshon-3	
		Nazorat	Tajriba	Nazorat	Tajriba
1	Pilla ipi chiqishi, %	45	46,2	45,1	46,6
2	Pilla losi chiqishi, %	4,3	3,9	4,4	4,1
3	Qaznoq po'sti chiqishi, %	3,3	3,2	3,4	2,9
4	G'umbak chiqishi, %	44,7	45,3	44,9	45,1
5	Qobiqning ipakdorligi, %	52,6	53,3	52,9	53,6
6	Ipning umumiy uzunligi, m	1105	1214	1113	1263
7	Uzluksiz chuvaluvchan uzunligi, m	813	992	862	1018

Bu jadvaldan ko'rishimiz mumkinki, nazoratga nisbatan tajriba variantida har ikkala usullarda ham los, qaznoq chiqishi nisbatan kamayganligini ko'rishimiz mumkin. Qobiqning ipakdorligi ikkala duragay tajriba usulida nazoratga nisbatan yuqori ekanligi aniqlandi.

